

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISHNING KRIMINOLOGIK JIHATLARI

Ashurova Nilufar O'ktamovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy himoya qilish masalalariga bag'ishlangan. Voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va ularni himoya qilishning ahamiyatiga urg'u berilgan. Shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy sabablari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy omillari tahlil qilingan. Shuningdek, qonunchilikda voyaga yetmaganlarning huquqiy himoyasi masalalari ham muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyat-huquqiy himoya, jinoyatchilik, qonunchilik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

Abstract: This article is dedicated to the issues of criminal law protection of the rights and interests of minors. Emphasis is placed on the prevention of crimes against minors and their protection. The main causes of crimes committed against minors and the socio-economic factors contributing to them are analyzed. Additionally, the legal protection of minors in legislation is discussed.

Keywords: minors, criminal law protection, crime, legislation, socio-economic factors.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining barcha yo'nalishlarida voyaga yetmaganlarning huquqlari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, oilaga, yoshlarga, axloqqa qarshi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli dasturiy tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish; jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish; diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish; aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish"[8] kabi muhim vazifalar belgilangan edi.

Davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonun va dasturlar oilani iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bun-

da, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini huquqiy himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki kelajak avlodning sog'lom va barkamol rivojlanishi butun jamiyatning rivoji uchun asosiy omildir. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik natijasida yoshlar qalbida vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat kabi olijanob qadriyatlar tobora mustahkamlanib bormoqda. Misol uchun, sotsiologik so'rovda ishtirok etgan yoshlarning ko'pchiligi uchun "oilaga (52,6%), vatanga xizmat qilish va jamiyat uchun foydali ishlar qilish (81,2%) ustuvor qadriyatlar hisoblanadi"[7].

Voyaga yetmaganlarni huquqiy himoya qilish masalasi davlatning barqarorligi va rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, davlat bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni davom ettirishi va ularni yanada takomillashtirishi zarur.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlar nafaqat jamiyatning huquqiy tizimiga, balki uning ma'naviy asoslariga ham jiddiy tahdid soladi. Bunday jinoyatlar nafaqat jabrlangan shaxslarga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazish, balki ularning kelajakda shaxs sifatida rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlodlarning barqaror va xavfsiz muhitda rivojlanishi jamiyat-

ning umumiy barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun juda muhimdir. Shu bois voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlatning ustuvor vazifalaridan biriga aylanishi lozim.

Kriminologiya nuqtayi nazaridan bunday jinoyatlarning xususiyati, sabablari va oqibatlarini chuqur o'rganish jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar shunga ishora qiladiki, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati psixologik, iqtisodiy yoki ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu yerda, ayniqsa, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, oilaviy muammolar, ta'lim va tarbiya sohasidagi kamchiliklar ham muhim omil sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Shuningdek, jinoyatchilarning aksariyati yoshlarga ta'sir o'tkazish uchun majburlov, tahdid yoki aldash kabi usullardan foydalanadi, bu esa ularning jinoyat qurboni bo'lishi ehtimolini oshiradi.

"Huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkoniyat yaratuvchi sabablar va omillar har qanday kriminologik tadqiqotda u yoki bu tarzda ko'rib chiqiladi, chunki u kriminologiyani muhim muammolaridan biridir. Uni ilmiy o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega"[1]. Chunki huquqbuzarlikka olib keluvchi omillarni aniqlash orqali profilaktika ishlari samaraliroq amalga oshiriladi. Shu bois bu muammolarga e'tibor qaratish jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyasining ajralmas qismi bo'lishi zarur.

Jinoyatchilik sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlar ijtimoiy, ya'ni maishiy turmush bilan bog'liq bo'lib, umumiy jinoyatchilikning sabablari va sharoitlari (umumiy sabablar), jinoyatlarning alohida turlari va guruhlari sabablari va sharoitlari (shaxsga qarshi jinoyatlar) hamda konkret jinoyatlarning sabablari va sharoitlari (voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish) sifatida o'rganilishi zarur.

Darhaqiqat, jinoyatchilikka olib keladigan omillar nafaqat ijtimoiy va turmush sharoiti bilan chegaralanadi, balki ular shaxsiy psixologik xususiyatlar, ta'lim darajasi, huquqiy madaniyat, iqtisodiy vaziyatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Jinoyatchilikning umumiy sabablarini tushunish va tahlil qilish kerak, lekin jinoyatlarning alohida turlariga xos sabablarni o'rganish

jarayonni oddiylashtirishga olib keladi. Har bir jinoyat turi o'z sabab va shart-sharoitlariga ega bo'lib, ularning tahlilini har tomonlama, kompleks usulda amalga oshirish zarur.

Shuningdek, muayyan jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini o'rganishda alohida shaxsning motivatsiyasi va uning shaxsiy omillari ham katta ahamiyat kasb etadi. Jinoyatlarning sabablari nafaqat tashqi sharoitlarga, balki ichki ruhiy-emotsional holatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu ma'noda, biz A.I. Dolgovaning "jinoyatchilikning konkret sharoitlarda turfa xil ko'rinish va shakllardagi ildizini atroflicha tushuntiradigan, umumiy, asosiy, boshlang'ich sababiyat mavjud emas"[5], degan fikriga to'liq qo'shilamiz. Shaxs tomonidan jinoyat sodir qilinishi, atrof muhitning uning shaxs sifatida shakllanishiga bo'lgan salbiy ta'siri natijasidir.

Qilmishning ijtimoiy xavfliligi jinoyatning sifat ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkich orqali jinoyatlarning qaysi biri og'ir yoki qaysi biri yengilroq ekanligini hal qilib bo'lmaydi. Bu muammo jinoyatning miqdor ko'rsatkichi orqali, ya'ni ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab tasniflash orqali hal qilinadi. A.V. Korneeva "jinoyatning miqdor ko'rsatkichlari uning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi mezonlar, ya'ni bir qator omillar: yetkazilgan zararining og'irligi, tajovuzning o'ziga xos xususiyatlari (jinoyatning oxiriga yetkazilgan yoki yetkazilmaganligi, bir kishi yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilganligi, jinoyat sodir qilish usuli va h.k.), aybning xususiyati, jinoyat subyekti o'ziga xos xususiyatlari va hokozalar asosida aniqlanadi" [6], deb yozadi.

Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, o'rganilayotgan jinoyatlarning bevosita sabablariga ko'pgina kriminologlar "oilaviy-maishiy soha, o'qish va ishda ta'magirlik-tekinox'rlik motivatsiyasi shakllanishi; mastlik, giyohvandlik, qimor o'yinlariga intilishda namoyon bo'ladigan hordiq chiqarish va maishiy qiziqishlar, ehtiyojlar, odatlar deformatsiyasi; mikromuhitda iste'mol qilish va egoistik hamda zo'ravonlik muhitini kiritishmoqda"[2].

Umuman olganda, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini jinoiy-huquqiy ta'minlash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, buning uchun davlat, jamoat tashkilotlari va jamiyatning barcha qatlamlari hamkorlikda ish olib borishlari lozim.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqiy siyosatning ahamiyati katta. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish nafaqat ijtimoiy adolatni, balki kelajak avlodning xavfsizligi va farovonligini ta'minlashdir. Voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlar jamiyatning eng zaif qatlamiga ta'sir qiladi, shuning uchun bu boradagi huquqiy siyosat alohida e'tiborni talab etadi.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning 30%ga yaqini katta yoshdagilar ta'sirida sodir etilmoqda. Bunday jinoyatlarning aksariyatini o'g'rilik, badanga turli darajada shikast yetkazish, firibgarlik, bosqinchilik, nomusga tegish jinoyatlari[3] tashkil qilishi uning ijtimoiy xavfliligini yanada oshiradi.

Ushbu yo'nalishda oldimizdagi hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iborat:

birinchidan, voyaga yetmaganlar javobgarligi va jazo choralari huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat uchun javobgarlikni huquqiy-tarixiy jihatdan o'rganish;

ikkinchidan, O'zbekistonda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatchilikning zamonaviy holati va tuzilishini o'rganish;

uchinchidan, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat sodir etuvchilarning shaxsini o'rganish va ularning tipologik xususiyatlarini aniqlash;

to'rtinchidan, O'zbekistonda voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatchilik sabablarini tahlil qilish;

beshinchidan, xorijiy mamlakatlar qonunchiligida voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatchilik uchun javobgarlik masalalarni o'rganish;

oltinchidan, voyaga yetmaganlar javobgarligini va voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikning huquqiy me'yorlarini takomillashtirish hamda qo'llanishi bo'yicha nazariy va amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Voyaga yetmagan shaxslarning huquq va manfaatlarini huquqiy ta'minlash, kriminologiya nuqtayi nazaridan, jinoyatchilikning kelib chiqish omillarini o'rganish va unga qarshi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan kompleks yondashuv hisoblanadi. Bu tizim voyaga yetmaganlarni himoya qilish va ularni jinoyatchilikdan saqlashga qaratilgan huquqiy

normalar, institutlar va mexanizmlar majmuini o'z ichiga oladi. Jinoyat-huquqiy ta'minlashning vazifalari quyidagilardan iborat:

voyaga yetmagan shaxslarni noqonuniy ta'qibdan himoya qilish: jinoyat jarayonlarida voyaga yetmaganlar ko'pincha jinoyatchi yoki qurbon sifatida ishtirok etadi. Voyaga yetmaganlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yoki sud tizimining adolatsiz munosabatiga duch kelishi mumkin. Shu bois, ularni asossiz ayblash, jazolash yoki nohaq hibsga olish kabi holatlardan himoya qilish uchun maxsus huquqiy mexanizmlarni yaratish talab etiladi;

huquqbuzarliklarning oldini olish: kriminologiya voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qiladi. Bu omillar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, oilaviy muammolar, ta'limdagi kamchiliklar va muhitdagi boshqa omillar bo'lishi mumkin. Shuning uchun jinoyatchilik profilaktikasi jamiyatdagi muhitni yaxshilashga, voyaga yetmaganlarning tarbiyasi, ta'limi va ijtimoiy moslashuviga qaratilgan chora-tadbirlar orqali amalga oshirilishi zarur;

voyaga yetmagan shaxslarning reabilitatsiyasi: jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning qayta ijtimoiylashuvi jinoyatchilikni kamaytirishning muhim omilidir. Kriminologiya jinoyat sodir etgan yoshlarning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy sharoitlari va psixologiyasini o'rganib, ularning tuzalish jarayoniga yordam beradi. Reabilitatsiya choralari voyaga yetmaganlarga psixologik yordam ko'rsatish va ularni qayta tarbiyalash orqali jamiyatga qaytarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kriminologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinoyat-huquqiy ta'minlashning samaradorligi, profilaktik va reabilitatsiya choralari bilan birgalikda amalga oshirilganda yanada yuqori bo'ladi. Jamiyat va davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyasi voyaga yetmaganlarni himoya qilish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli mexanizmlarni ishlab chiqishi lozim.

Umuman olganda, voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchisi, voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy manfaatlari asosiy jinoyat obyekti hisoblangan jinoyatlar; ikkinchisi, voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy manfaatlari qo'shimcha jinoyat obyekti sifatida namoyon bo'ladigan jinoyatlar.

Birinchi guruh jinoyatlari orasida voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy va ruhiy zo'ravonliklar, ularni ekspluatatsiya qilish, shuningdek, jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar kiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida 118-moddasi (Nomusga tegish), 128-moddasi (O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish), 129-moddasi (O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish) va hokazo. Ularda voyaga yetmaganing shaxsiy manfaatlarini asosiy jinoyat obyekti hisoblanadi.

Ikkinchi guruh jinoyatlari esa voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlarini qo'shimcha jinoyat obyekti sifatida ko'rsatuvchi jinoyatlardan iborat. Bularga odam savdosi, giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosi, qo'shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash (voyaga yetmaganni jalb qilgan holda) va boshqa jinoyatlar kiradi. Masalan, odam savdosi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 135-moddasi) jinoyatida asosiy obyekti inson erkinligi bo'lsa-da, voyaga yetmaganing huquqlari va manfaatlarini qo'shimcha obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 273-moddasi) ham shu kabi jinoyatlar turkumiga kiradi, chunki bu jinoyatlarda voyaga yetmaganlarning salo-matlighi va tarbiyasi qo'shimcha jinoyat obyekti sifatida ko'rsatiladi.

Xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarni himoya qilishga qaratilgan normalar tahlili har doim ilmiy qiziqish uyg'otib kelgan. Xorijiy mamlakatlarda voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilish normalarining institutsionalizatsiyasi muammosi turlicha hal qilinadi: ularning katta qismi (Shveysariya, Ispaniya, Germaniya, Polsha, Qozog'iston jinoyat kodekslari) oila va voyaga yetmaganlarga qarshi tajovuzlarga bag'ishlangan alohida bobni o'z ichiga oladi, ayrimlarida esa (Xitoy, Gollandiya) bunday norma mavjud emas. Shunga qaramay, bolaning asosiy huquqlari har qanday holatda ham jinoiy-huquqiy himoya ostida bo'lib kelgan. Bolaning sog'lig'iga, axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga zarar yetkazadigan axborot va targ'ibotdan himoya qilish huquqi barcha xorijiy davlatlarda qonun bilan himoya qilinadigan eng muhim huquqdir.

Har bir davlatning jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga bag'ishlangan maxsus normalar mavjud. Masalan, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston kabi davlatlarda "Oila va yoshlarga qarshi" boblar mavjud bo'lib, bu mamlakatlar qonunchiligida voyaga yetmaganlarning manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ozarbayjonning Jinoyat kodeksida birinchi marta voyaga yetmaganlarni himoya qilish bo'yicha maxsus bob kiritilgani e'tiborga molikdir. Unda voyaga yetmaganlarni jinoyat sodir etishga yoki fohishalik kabi harakatlarga jalb qilish kabi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Shuningdek, voyaga yetmaganlar savdosi bilan bog'liq jinoyatlar ham birinchi marta joriy etilgan bo'lib, bu davlatning voyaga yetmaganlarni turli maqsadlarda, jumladan, organlar transplantatsiyasi uchun savdoga qo'yilishining oldini olishga bo'lgan jiddiy munosabatini anglatadi.

Ukraina va Fransiya qonunchiligida ham voyaga yetmaganlarning jinoiy faoliyatga jalb qilinishiga alohida e'tibor qaratilgan. Ukrainada, masalan, voyaga yetmaganlarni ichkilikbozlikka yoki qimor o'yinlariga jalb qilish uchun besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan bo'lsa, Fransiya bunday qilmishlar uchun yetti yillik qamoq jazosi va katta miqdordagi jarima tayinlanadi. Bu esa voyaga yetmaganlarni himoya qilish sohasidagi qonunchilikning jinoiy faoliyatga jalb qilish kabi holatlarga nisbatan qanchalik qat'iy ekanligini anglatadi[9].

O'zbekiston va Gollandiya qonunchiligida voyaga yetmaganlarga zararli bo'lishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tarqatishga qarshi choralar belgilangan. O'zbekistonda zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotlarni tarqatish uchun javobgarlik 2012-yilda kiritilgan bo'lsa, Gollandiyada bunday me'yorlar 2000-yildayoq mavjud bo'lgan[4].

Kriminologiya nuqtayi nazaridan qarganda, voyaga yetmaganlarning jinoyatchilikdan himoya qilinishi jamiyatning kelajagini asrash maqsadida davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan muhim choralar hisoblanadi. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlar savdosi, jinoyatga jalb qilish, ichkilikbozlikka yoki axloqsizlikka majbur qilish kabi jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish orqali davlatlar

voyaga yetmaganlarni jinoiy ta'sirdan himoya qilishga, ularning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashga intilayotganini ko'rish mumkin. Bunday choralar nafaqat jinoyatni jazolash, balki jinoyatlarning oldini olish va profilaktikasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat organlari va huquq-tartibot idoralari ushbu jinoyatlarga qarshi kurashishda o'z vazifalarini jadallashtirishi, faqat jinoyatlarni aniqlash va jazo berish bilan cheklanmay, balki profilaktik choralarni qo'llashga ham e'tibor qaratishlari zarur. Profilaktik dasturlar orqali yoshlarning huquqiy bilimlarini boyitish, oila va maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish ham muhim omildir. Huquq-tartibot organlarining muvaf-

faqiyati nafaqat jinoyatlarni aniqlash, balki ularning oldini olish faoliyatiga ham bog'liqdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, psixologik yordam, jamiyat va oila ichidagi tarbiyaviy ishlar voyaga yetmaganlarning jinoyat qurboni bo'lish ehtimolini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jinoyatchilikning kelib chiqish omillarini o'rganish, ularga ta'sir qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni tahlil qilish orqali huquq-tartibot organlari bunday jinoyatlarning oldini olishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin. Shuningdek, davlat organlari voyaga yetmaganlarni himoya qilish uchun huquqiy asoslarni takomillashtirishlari va jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirishlari zarur.

Foydalanilgan manbalar

1. Abdurasulova Q.R. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi // "Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDYUI, 2008. – B. 112.
2. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: TDYUU, 2008. – B. 234.
3. Ahrorov B. Voyaga yetmaganlarni jinoiy faoliyatga jalb qilishning oldini olish va jinoiy-huquqiy kurash choralari // Qonun himoyasida, 2001. – №1. – B. 24.
4. Gollandiya Jinoyat kodeksi // <http://lawlibrary.ru/izdanie38912.html>
5. Криминология: Учебник для юрид. вузов / Под общей ред. А.И.Долговой. – М., 1997. – С. 180.
6. Корнеева А.В. Понятие и признаки преступления. Уголовное право Российской Федерации. Общая часть. – М.: Юристъ, 2001. – С. 152.
7. Saidov A. Yoshlar, demokratik islohotlar va ertangi kun // Ijtimoiy fikr, 2008. – № 1(41). – B.8.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
9. Fransiya Jinoyat kodeksi // <https://constitutions.ru/?p=25017>

